O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60310300-1412
2025 yil “10” 08

“TASDIQLAYMAN”
Kattaqo‘rg‘on davlat
pedagogika instituti rektori:
Sh.R.Urakov
2025 yil “10” 08

SOTSIAL PSIXOLOGIYA
FANINING
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim soha:	310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60310300 – Psixologiya
	Kvalifikatsiya: Psixolog

Fan/modul kodi PTA1412	O‘quv yili 2025-2026 2026-2027	Semestr 4 5	ECTS – Kreditlar 6 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Sotsial psixologiya	74 72	106 108	180 180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – sotsial psixologiyaning predmeti, sotsial psixologik qarasharning rivojlanish tarixi, fanning metodologiyasi va metodlari, sotsial psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari, sotsial psixologiyada shaxs muammosi, muloqot va guruhlar muammosi, olomon psixologiyasi, guruh sharoitida zamonaviy o‘qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari, shaxsning sotsializatsiyasi, sotsial ustanovka, boshqaruv muammosi, sotsial psixologiyaning tadbiqiy sohalarini o‘rganishdan, talabalarni etnopsixologiya va din psixologiyasining asosiy tushunchalari, bo‘limlari va muammolarn bilan yaqindan tanishtirish hamda ushbu sohadagi ma’lumotlarni tahlil etish va baholash bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan, boshqaruv psixologiyasiga oid bilimlar, kategoriyalar va tushunchalarni talabalarga singdirishdan iborat

Fanning vazifasi:

- talabalarda bu soha bo‘yicha qat’iy motivasiyani shakllantirish, ularning bilimlarini bir tizimga keltirish;
- talabalarda guruhlar orqali yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish;
- talabalarni faol kasbga kirish va ma’lumotlardan foydalana olishga o‘rgatish;
- sotsial psixologiyada ishlatiladigan asosiy yo‘nalishlar haqida talabalarga ma’lumotlar berishdan iborat.

TOP-300 talik ro‘yxatga kiruvchi xorijiy OTT tajribasiga muvofiqligi:
Ushbu o‘quv fan dasturi Oli ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi 87-son “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga asosan xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi TOP-300 talik ro‘yxatga kiruvchi University of Porto (278) tajribasiga muvofiq takomillashtirildi.

https://sigarra.up.pt/fpceup/en/ucurr_geral.ficha_uc_view?pv_ocorrencia_id=523245m

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I QISM. SOTSIAL PSIXOLOGIYA (IV semestr)

1-mavzu: Sotsial psixologiyaga kirish

Sotsial psixologiya predmetini tushunish umumiy psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishiga bog‘liqligi. Psixologik va sotsiologik adabiyotlarda sotsial psixologiya predmetini birdek tushunishning yo‘qligi. Sotsial psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazar.

Sotsial psixologiyaning boshqa fanlar, psixologiyaning boshqa turkumlari bilan munosabati. Sotsial psixologiya predmeti tushunchasi.

2-mavzu: Sotsial psixologik g‘oyalar shakllanishi tarixi

Sotsial, falsafiy va sotsiologik ta’limotlarda sotsial-psixologik g‘oyalarni rivojlantirilishi. Sotsial psixologiyaning mustaqil fan bo‘lib ajralib chiqishida sotsial, ilmiy va ideologik nazariyalarni yaratish bo‘yicha birinchi harakatlar.

“Xalqlar psixologiyasi” uning tarixiy sabablari va vazifalari, Omma va olomon psixologiyasi. “Sotsial xatti-harakat instinkti” nazariyasi (Mak Daugall). Sotsial psixologiyaning chet eldagi hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan asosiy nazariy konsepsiyasi. O‘zbekistonda sotsial psixologik tadqiqotlarning o‘rni va istiqbollari. Sotsial psixologiyaning Rossiya va sobiq Ittifoqda rivojlanishi

3-mavzu: Sotsial psixologiya metodologiyasi va metodlari

Sotsial psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolari. Sotsial-psixologik tadqiqotning ikki asosiy tipi. Eksperimental va korrelyatsion.

Sotsial psixologik tadqiqotning asosiy metodlari. Kuzatish metodi. Suhbat metodi. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Proyektiv metodlar. Sotsial psixologiyada “Test” qo‘llashning sharoitlari. Sotsial psixologiyada eksperimentlarning asosiy tiplari.

4-mavzu: Sotsial psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari

Sotsial psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi. Psixoanaliz. Bixeviorizm. Sotsiometriya. Kognitivizm. Interaksionizm. Tranzakt tahlil. Ekzistensial psixologiya.

5-mavzu: Sotsial psixologiyada shaxs muammosi

Shaxs sotsial ta’sirlar mahsuli sifatida. Shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar masalasidagi ikki polyar nuqtai nazar. Nativizm va emperizm. Sotsial normalar, sanksiyalar va shaxs.

6-mavzu: Sotsial va shaxslararo munosabatlar

Sotsial ta’sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. «Men» – obrazi va o‘zini-o‘zi baholash. O‘z-o‘ziga bahoning past, o‘ta yuqori va adekvat bo‘lishi. O‘z-o‘zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari. O‘z-o‘zi bilan dialog.

7-mavzu: Shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi

Shaxslararo munosabatlarda egoistik munosabatning namoyon bo‘lishi. Shaxsning altruistik xulqi haqida nazariyalar. Shaxslararo munosabatlarda stigma va diskriminatsiyaning namoyon bo‘lishi. Diskriminatsiya. Shaxs va uning tolerantligi tushunchasi. Tolerantlikning psixologik adabiyotlarda o‘rganilishi.

8-mavzu: Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi

Agressiya tushunchasi. Shaxslararo munosabatlarda agressiv xulqning namoyon bo'lishi. Agressiv xulq-atvor borasidagi nazariyalar. Agressiyaning ijtimoiy o'rganish nazariyasi. Agressiv xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli. Agressiv xulq-atvorning shakllanishida tengdoshlarning roli

9-mavzu: Muloqot psixologiyasi

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Muloqot va uni o'rganish muammolari. Muloqotning kommunikativ tomoni: muomala – informasiya almashish. Muloqotning interaktiv tomoni: muloqotning harakatlar bilan almashishi. Muomalaning perseptiv tomoni: o'zaro idrok etish.

10-mavzu: Sotsial psixologiyada guruhlar muammosi. Moslashuvchanlik (konformizm)

G.M.Andreevaning guruhlar bo'yicha klassifikatsiyasi. Katta sotsial guruhlar psixologiyasi. Etnik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.

XX asr sotsial psixologiyasida kichik guruhlarga bo'lgan qiziqishlarning sabablari. Sotsial hayotda kichik guruhlar ahamiyati oshishining obyektiv sharoitlari. Kichik guruh tushunchasi. Kichik guruhlar klassifikasiyasi: birlamchi va ikkilamchi guruhlar, rasmiy va norasmiy, a'zoli va referent guruhlar. Guruh o'lchamlari va uning tizimi. Jamoalarda psixologik o'zaro moslik. Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish.

Konformizm tushunchasi. Salomon Ash tajribasi bilan moslashuvchanlik darajasini baholash. Konformizm – shaxsning ko'pchilik fikriga o'zini moslashtirish.

11-mavzu: Olomon psixologiyasi

Ommaviy sotsial jarayonlar va harakatlar psixologiyasi. Olomonning umumiy tavsifi. Uning ruhiy birdamlik qonuni. "Olomon" tushunchasi va uning turlari. Olomonning ijtimoiy-psixologik belgilari. Olomonni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlar

12-mavzu: Guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari

Auditoriya bilan ishlashning sotsial psixologik shartlari. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish. Darsda munozara, breynshtorming va treninglarni o'tkazish. Bahs turlari. Yozma bahsni o'tkazish qoidalari.

13-mavzu: Ijtimoiy rol. Guruhlararo nizo nazariyalari.

Ijtimoiy rol tushunchasi va ko'rinishlari. R.Linton va D.Mid ijtimoiy rol tushunchasi. T.Parsonsning ijtimoiy rolning asosiy tavsiflari. Rolni qabul qilish.

Ijtimoiy rollardagi emotsionallik. Ijtimoiy rolni shakllantirish. Rollar motivatsiyasi. Namoyon qilinishiga qarab faol va yashirin rollar

Ijtimoiy rolning shaxs shakllanishiga ta'siri. D.A.Leontevning shaxs ijtimoiy rollarni o'zlashtirishdagi ikki aspekt. Rollardagi nizolar. U.G.Gudaning «Rollardagi nizolar nazariyasi». M.Komarovskaya tomonidan o'tkazilgan tadqiqot.

Guruhlararo kelishmovchilik va raqobatning psixologik sabablari. Iqtisodiy, simvolik va maqom uchun kurash nazaraiyalari. Haqiqiy nizo nazariyasi (Muzaffer Sherif) – cheklangan resurslar uchun raqobat. "Biz" va "ular" effektlari, guruhlarni ideallashtirish.

14-mavzu: Shaxs ijtimoiylashuvi

Ijtimoiylashuv tushunchasi. F.G.Giddingsning «Ijtimoiylashuv nazariyasi». O'spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo'nalishining shakllanishi. Mas'uliyat. Julian B.Rotterning «Nazorat lokusi» tushunchasi. Maqsadlar va ideallar. Qiziqishlar va dunyoqarash.

15-mavzu: Sotsial ustanovka

Sotsial ustanovka tushunchasi. Sotsial ustanovkalarni o'rganishda Uznadze maktabi tadqiqotlarining ahamiyati. Psixologiyada sotsial ustanovkalarni o'rganishga bo'lgan turli yondashuvlar. Sotsial ustanovka strukturasi. Sotsial ustanovkalar kognitiv, emotsional va xatti-harakat komponentlari. Sotsial ustanovkalar o'zgarishi muammosi va uning nazariy va amaliy ahamiyati. Ustanovkalarning to'rt bosqichli tizimi

16-mavzu: Liderlik va boshqaruv

Boshqaruv psixologiyasining sotsial psixologik jihatlari. Boshqaruv jarayonining ikki mihim jabhasi. Ijtimoiy jabha. Psixologik jabha. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. "Lider" va "rahbar" tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida B.D.Parigin fikrlari. Liderlikka oid nazariyalar. Xarizmatik nazariya. Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi. Sintetik nazariya. Rahbar imidji. Liderlik uslublari haqida tushuncha. Avtoritar. Demokratik. Liberal. Rahbarlik sifatlari

17-mavzu: Tatbiqiy sotsial psixologiya

Sotsial psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari. Sotsial psixologiyaning asosiy sohalari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Siyosat sohasidagi psixologiya. Oila va nikoh borasidagi tadbiqiy ishlar. Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Huquqbuzarlikning oldini olish.

II QISM. ETNO VA DIN PSIXOLOGIYASI (V-semestr)

1-mavzu: Etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari.

Etnopsixologiya haqida umumiy tushuncha. Etnopsixologiya fanining predmeti, ob'yekti va vazifalari. Etnopsixologiyaning asosiy tushunchalari: "etnos", "madaniyat", "etnik identiklik". Etnopsixologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Etnopsixologiya fanining muammolari.

Etnopsixologiyaning fanlararo xarakteri. Etnopsixologiyaning asosiy bo‘limlari. Etnopsixologik tadqiqotlarda "Emic" va "Etic" yondashuvlar. Etnopsixologiyaning tadqiqot metodlari. Etnopsixologik tadqiqotlarni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

2-mavzu: Etnopsixologiya fanining shakllanish tarixi

Sh.Monteskye tadqiqotlarida geografik determinizm g‘oyasi. Gerder falsafasida "xalq ruhi" g‘oyasi. M.Lasarus va G.Shteyntalning xalqlar psixologiyasi haqidagi ta’limoti. G.Lebonning xalq va omma psixologiyasi to‘g‘risidagi kopseptual qarashlari. V.Vundtning xalq va omma psixologiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi. F.Boas tadqiqotlarida etnik madaniyatning yaxlit tuzilma sifatida o‘rganilishi. R.Benedikt tadqiqotlarida appolonik va diognistik tipdagi madaniyatlarning tafovut qilinishi (Konfigurasionizm). M.Mid tadqiqotlarida madaniyat va psixologiyaning yaxlit holda o‘rganilishi. A. Kardiner, Dj. Uayt va K.Dyubua tadqiqotlarida shaxs tarkibiy tuzilishga oid g‘oyalar (o‘rtamiyona shaxs, modal shaxs va b.)

3-mavzu: Etnopsixologiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha yakin xorij mamlakatdarida o‘tkazilgan tadqiqotlar

Rossiyada o‘tkazilgan dastlabki etnopsixologik tadqiqotlar va yangi fan sohasini yaratishga nazariy yondashuvlar. Nadejdinning psixik etnografiyasi va XIX asrning 40 yillarida Rus geografiya jamiyatining faoliyati. G.G.Shpetning etnik psixologiyani barpo etish to‘g‘risidagi qarashlari. XX asrda Rossiyada etnopsixologiya fanining rivojlanishi. Sechenov va Kavelin orasidagi ma’naviy madaniyat mahsullariga asoslashggan holda psixikani o‘rganish imkoniyatlari haqidagi bahs-munozaralar. L.N.Gumilev tadqiqotlarida etnoslarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi konsepsiya. A.R.Luriyaning O‘zbekistonda amalga oshirgan tadqiqotlari.

4-mavzu: Etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili. Etnos va shaxs

Etnos elat, millat, irq tushunchalarining o‘ziga xos jihatlari. Millat tushunchasi. Millatniig psixologik asoslari mazmuni. Moddiy va ma’naviy madaniyat. Etnik muhit va etnik madaniyat. Etnik madaniyat xulq-atvor namunalari, qadriyatlari, mazmun-mohiyatlari tizimi sifatida. Etnosning yaxlit tizim sifatida mavjudligi. Turli elat vakillari xulq-atvorining psixologik o‘ziga xosligi.

Shaxsiy o‘zlikni anglash va etnik o‘zlikni anglash tushunchalariniig mushtarakligi. Etnik o‘zlikni anglashning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari. Etnonim tushunchasi. Individ sosializasiyasida tilning o‘rni. Bolalar sosializasiyasi va inkulturasiyasi. Shaxsning universallik va madaniy o‘ziga xoslik nazariyalari muammosi. Millatniig psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari. Etnik olam tasavvurining tarkibiy tuzilishi. Etnik ustanovkalar va sxemalar.

5-mavzu: Milliy xarakter va etnik identiklik. Milliy mentalitet, etnik ramzlar va madaniyat

Milliy xarakter va temperament. Milliy mentalitet va milliy tafakkur etnik ndentiklikning shakllanishi. Etnik identiklik turlari. Etnik identiklikning o‘sishi aa inqirozi fenomenlari. Milliy xarakterning asosiy nazariyalari. Milliy xarakterning asosiy o‘lchovlari. Milliy va etnik ozchiliklarda etnik identiklik.

Milliy-psixologak o‘ziga xosliklar tushunchasi, turlari va xususiyatlari. Milliy psixikaning funksiyalari. Etnik ramzlar. Etnik ramziylashtirish mexanizmlari. Etnosning psixologik himoya mexanizmlari. Etnopsixologik hodisalarni o‘rganishga yondashuviing ilmiy tamoyillari. Etnopsixologik fenomenlarning namoyom bulish mexanizmlari.

6-mavzu: Etnik stereotiplar va ularning turlari. Etnik o‘zaro munosabatlarniig xususiyatlari.

Etnik stereotip tushunchasi. Etnik stereotiplarning shakllanishi va funksiyalari. Etnik stereotiplarni o‘rganish tarixi va asosiy xususiyatlari. Etnik stereotiplar va stereotipizasiya mexanizmlari. Idrok etnik stereotiplari. Xulq-atvor etnik stereotiplari. Avtostereotiplar va geterostereotiplar. Turli etnos qiyofalarining shakllanish muammolari.

Etnik o‘zaro munosabatlar. Etnik o‘zaro munosabatlar shakllanishining turlari va bosqichlari. Etnik jamoalarning o‘zaro hamkorlik jarayonlari. Etnik o‘zaro hamkorlik vaziyatida guruhlararo idrok xususiyatlari. Til etnik o‘zaro hamkorlik mexanizmi sifatida. Akkulturasiya tushunchasi va uning tavsifi.

7-mavzu: Din psixologiyasining predmeti va metodlari. Din psixologiyasining asosiy tushunchalari.

Din va din psixologiyasi tushunchalarining ta’riflari. Din psixologiyasi fanining umumiy tavsifi. Ilmiy bilimlar tizimida din psixologiyasining o‘rni. Din psixologiyasining tadqiqot metodlari. Dinnnng psixologik nazariyalari

Diniy ong tushunchasi. Diniy psixologiya va diniy mafkura. Diniy ibodat va uning dindor psixologiyasiga ta’siri. Diniy tasalli va diniy targ‘ibot. Ishonch va uning turlari. Diniy e’tiqod. Ichki (botiniy) dindorlik – din psixologiyasi predmeti sifatida.

8-mavzu: Dindor shaxsiga xos psixologik xususiyatyaar. Dinnnng shaxs shakllanishndagi o‘rni va mohiyati.

Diniy his-tuyg‘ular. Diniy muomala va diniy ustunlik (o‘z dinini boshqa dinlardan ustun qo‘yish) hodisasi. Dindor kishining ehtiyojlari va xulq-atvor motivlari. Dindorlarning qadriyatlar tizimi va diniy ustanovkalari. Diniy hodisalarning intersubyektiv (zohiriy) jihatlari.

Diniy kechinmalarning psixologik tahlili. Psixologiya fanida diniy e’tiqod tushunchasiga yondashuv. Diniy amallar va diniy xulq-atvor G.Ollport tadqiqotlarida dindor shaxsi tipologiyasi. V.Franklning hayot mazmuni to‘g‘risidagi ta’limotida dindorlik tushunchasi. Ratsional va konfessional yo‘naltirilgan din psixologiyasi.

9-mavzu: Insonning diniy jamoaga qo‘shilishi va uning psixologik tomonlari

Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri. Insonlarni diniy tashkilotlarga jalb etish xususiyatlari. Da’vatchi (yollovchi) va ob’yekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o‘zaro aloqaning vujudga kelishi. Obyektning (yollanuvchiniig) ongini boshqarishning nutqiy usullari. Psixotexnik usullar va obyekt (yollanuvchi) ongida hosil bo‘lgan o‘zgarishlarning tashqi belgilari.

10-mavzu: Iymon va e’tiqodinng shakllanishi va namoyon bo‘lishi.

Diniy iymon va e’tiqod tushunchasi. Ularning shakllanish bosqichlari. Bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha. Sezgi va uning turlari. Idrok va uning xususiyatlari. Xotira va uning e’tiqoddagi roli. Tafakkur jarayoni va bilimlari. Hayol va uning mohiyati. Psixologik xususiyatlardan: diqqat va e’tiqod.

11-mavzu: Diniy e’tiqod va shaxsning individual xususiyatlari

Din psixologiyasida shaxs. Diniy e’tiqod va shaxsning mijozi (temperament). Diniy e’tiqod va fe’l-atvor (xarakter). Diniy e’tiqod va faoliyat. Nutq va faoliyat birligi. Diniy e’tiqodning shaxsning o‘ziga xos xususiyatlariga ta’siri va shakllanishidagi ahamiyati.

12-mavzu: Ijtimoiy muhit, diniy ananalar va komil iisonning shakllanishi

Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi haqida. Jamoa, guruh va guruh turlarini din psixologiyasida o‘rganilishi. Diniy va nodiniy an’analarining shaxsga ta’siri. Shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlarini shakllanishini psixologiyada tahlil etilishi. Diniy va nodiniy aloqalarni etnopsixologiya va sotsial psixologiyada o‘rganilishi.

13-mavzu: Diniy fanatizm va fanatlar yuzaga kelnshnning psixologik asoslari

Diniy fanatizmning din psixologiyasida o‘rganilishi. Nodiniy fanatizmni umumiy psixologiyada o‘rganilishi. Fanatik (manqurt) yuzaga keltiruvchi psixofiziolog omillar. Shaxs diqqati dominantlik (ustunlik) xususiyati fanatizm va uning patopsixologiyada o‘rganilishi. Fanatlikning oldini olishning psixologik (to‘g‘ri tarbiya va asosli bilim) asoslari haqida.

14-mavzu: Diniy poklanish (katarsis)ning ijtimoiy psixologik mohiyati.

Diniy katarsis tushunchasi. Aristotel asarlarida katarsis tushunchasining ishlatilishi. Jaomaviy ibodatlar va katarsis. Meditasiya va e’tiqod. Diniy amallar, udumlar va katarsis.

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

IV-semestr

1. Sotsial psixologiyaga kirish

2. Sotsial psixologik g‘oyalar shakllanishi tarixi
3. Sotsial psixologiya metodologiyasi va metodlari
4. Sotsial psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari
5. Sotsial psixologiyada shaxs muammosi
6. Sotsial va shaxslararo munosabatlar
7. Shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi
8. Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi
9. Muloqot psixologiyasi
10. Sotsial psixologiyada guruhlar muammosi
11. Kichik guruhlar psixologiyasi
12. Olomon psixologiyasi
13. Guruh sharoitida zamonaviy o‘qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari
14. Ijtimoiy rol
15. Shaxs ijtimoiylashuvi
16. Sotsial ustanovka
17. Liderlik va boshqaruv
18. Tatbiqiy sotsial psixologiya

V-semestr

1. Etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari.
2. Etnopsixologiya fanining shakllanish tarixi.
3. Etnopsixologiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha yaqin xorij mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar.
4. Etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili. Etnos va shaxs
5. Milliy xarakter va etnik identiklik. Milliy psixika, etnik ramzlar va madaniyat
6. Etnik stereotiplar va ularning turlari
7. Etnik o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari
8. Etnik nizolar va etnosentrizm
9. Din psixologiyasining predmeti va metodlari. Din psixologiyasining asosiy tushunchalari
10. Dindor shaxsiga xos psixologik xususiyatlar. Dinning shaxs shakllanishidagi o‘rni va mohiyati
11. Iisonning diniy jamoaga qo‘shilishi va uning psixologik tomonlari
12. Diniy e’tiqod va bilish jarayonlari
13. Diniy e’tiqod va shaxsning individual xususiyatlari
14. Ijtimoiy muhit, diniy an’analar va komil iisonning shakllanishi
15. Diniy fanatizm va fanatlar yuzaga kelishining psixologik asoslari
16. Diniy bilimlar shakllanishining psixologik asoslari

	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: **IV-semestr** 1. Ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan, psixologiyaning boshqa turkumlari bilan munosabati. "Xalqlar psixologiyasi" uning tarixiy sabablari va vazifalari. Ijtimoiy psixologik tadqiqotning asosiy metodlari. 2. Shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi. Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi. Ijtimoiy psixologiyada perseptiv jarayonlarni analiz qilish xususiyati. 3. Katta va kichik guruhlar psixologiyasi tushunchasi. Olomon psixologiyasi. 4. Ijtimoiy rol va shaxs ijtimoiylashuvi. Ijtimoiy ustanovka tushunchasi. **Izoh:** Mustaqil ta'lim topshiriqlari mazmuni, bajarilish shakli va muddati hamda baholash mezonlari fan bo'yicha sillabusda batafsil beriladi. **V-semestr** 1. Etnopsixologik xususiyatlarni shakllantiruvchi omillar 2. Etnos va individ 3. Milliy va sinfiy psixologiya 4. Etnik psixologiyaning tuzilishi 5. Milliy xarakter 6. Milliy urf-odat va an'analar 7. Milliy tuyg'ular 8. Milliy did (ta'b) 9. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash 10. Etnopsixologiya va tender muammmolar 11. Shaxsning individual psixologik va etnopsixologik xususiyatlari 12. Individ va omma psixologiyasi 13. Xalq ogzaki ijodi va milliy did 14. Diniy imon va e'tiqod 15. Diniy ong. 16. O'zlikni anglash
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: •Sotsial psixologiya fanining mohiyati, etno va din psixologiyasining ijtimoiy ahamiyati, menejment va marketing psixologiyasining bugungi kundagi mavqei haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** •Turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda sotsial psixologiyaning har xil usullarini qo'llash, diniy bilimlar shakllanishining psixologik asoslarini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilish, rahbarlar, xodimlar faoliyati va xulq-atvorini psixologik baholash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** •Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	• innovatsion pedagogik texnologiyalar (Klaster, B-B-B, Nima uchun organayzeri)
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1.Abduraxmonov F., Abduraxmonova Z.E. Din psixologiyasi. – Toshkent, 2011. 2.Ahrorov V.Yu. Sotsial psixologiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 246 bet. 3.G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya. – Toshkent, 2012. – 316 b. 4.Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 168 b. 5.Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, – 172. 6.Mamatov M.M. "Etnopsixologiya". – Toshkent, 2006. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1.Ahrorov V.Yu. Menejment va marketing psixologiyasi. – Samarqand, 2019. – 120 b. 2.Андреева Г. М. Социальная психология. – Москва, 2008. 3.Вундт В. «Проблемы психологии народов». – СПб, 2016 7.Майерс Д. Социальная психология, 2010. – 1314 с. 8.Abrams D., Hogg M.A. &nMarques J.M. – The Sosial Psychology of Inclusion and Exclusion, 2005. **9.**Hogg M.A. & Vaughan G.M. – Sosial Psychology, Pearson Education, 2014
7.	Fan dasturi Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** V.Y.Axrorov – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi dotsenti _____ *(imzo)* M.V.Sulaymonov – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi dotsenti v.b. _____ *(imzo)*
9.	**Taqrizchilar:** **G.Xalbayeva** – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi o'qituvchisi. **S.Nasimov** – Samarqand davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Prorektor: **dots. S.M.Elmonov**

Fakultet dekani: **prof. A.I.Saidov**

Kafedra mudiri: **dots. T.E.Eshquvvatov**